



## XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

### Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1 aprel holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbir-korlikni jadal rivojlantirish bora-sida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchi-likda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)




#### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


**Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



*mas'uliyati cheklangan jamiyat,  
ming birlik*




*xususiy korxona,  
ming birlik*




### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 aprel holatiga ko'ra)




### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni**  
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat - aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(yanvar-mart oylarida, ming birlikda)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning  
tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi**  
(2023 yil yanvar-mart oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2023 yilning yanvar-mart oylarida 1576 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlari 1197 ta, xususiy korxonalar 159 ta, oilaviy korxonalar 179 ta va boshqalar 41 tani tashkil etdi.

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar tarkibi**  
(1 aprel holatiga ko'ra)




## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni - 4261 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,5% ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 87,2% ga (jami sanoatdagi ulushi 94,3%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 85,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,9%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 105,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,3 %) o'sishidir.

## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2479 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,2 foizni tashkil etdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan 80,4 foizga (jami qurilishdagi ulushi 58,0 foiz), fuqarolik ob'ektlarini qurish 115,8 foizga (jami qurilishdagi ulushi 13,9 foiz), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 81,2 foizga (jami qurilishdagi ulushi 28,1 foiz) tashkil etdi.


### Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 8567 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,3 foizni tashkil etdi. Jami savdo korxonalari va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 4,7 foizga (jami savdodagi ulushi 65,0 foiz), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 3,3 foizga (jami savdodagi ulushi 24,8 foiz), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 102,1 foizga (jami savdodagi ulushi 10,2 foiz) tashkil etdi.

### Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)




### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2091 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,4% ga tashkil etdi. Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 85,2% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,0%), yashash bo'yicha xizmatlarning 92,7% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 17,0%) tashkil etdi.




**Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 324 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 94,7 foizni tashkil qildi. Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili kino video-filmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 76,9 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,1 foiz), axborot sohasidagi xizmatlar o'tgan yilga nisbatan 70,3 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,9 foiz), nashriyotchilik xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 91,8 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 13,9 foiz), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar 60,0 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,9 foiz), kompyuter dasturlashtirish xizmatlari o'tgan yilga nisbatan 120,2 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 44,1 foiz), telekommunikatsiya xizmatlarining 83,9 foizga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 24,1 foiz) o'sgan.

### Oilaviy korxonalar soni (1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 3 934 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 296 taga yoki 108,1% ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2960 tkni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 364 taga yoki 11,0% ga kamayganligini ko'rish mumkin.


2023- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 179 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36 taga yoki 125,2% ga oshganligini ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra 25126 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2944 taga yoki 113,3 foizga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19689 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1065 ga yoki 5,1 foizga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023 yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1197 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 192 taga yoki 119,1 foizga oshgan.




**Buxoro viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- aprel holatiga ko'ra 427 tani tashkil etib, ulardan 315 tasi yoki 73,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 47 taga yoki 13,0% ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 19 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni**  
(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)

	2019 y.	2020 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y.
<b>Jami</b>	<b>193</b>	<b>284</b>	<b>310</b>	<b>362</b>	<b>315</b>
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	17	20	28	33	21
sanoat	90	121	121	129	115
qurilish	12	31	34	37	24
savdo	37	55	70	94	91
tashish va saqlash	3	5	5	6	14
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14	21	22	26	20
axborot va aloqa	-	1	1	5	5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	6	6	8	5
boshqa turlar	16	24	23	24	20

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)


	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>315</b>	<b>169</b>	<b>146</b>
Buxoro shahri	174	78	96
Kogon shahri	11	9	2
<i>tumanlar:</i>			
Olot	4	2	2
Buxoro	27	19	8
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	16	10	6
Kogon	26	17	9
Qorako'l	9	5	4
Qorovulbozor	4	2	2
Peshko'	9	3	6
Romitan	15	10	5
Jondor	8	6	2
Shofirkon	7	5	2

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarnig qo'shma  
korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 174 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 55,2%), Kogon tumani 26 ta (8,3 %), Peshko' tumani 9 tani (2,9%), Kogon shahar 11 ta (3,5%), Buxoro tumani 27 ta (15,5 %), hamda Jondor tumanlarida 8 tani (2,5%) tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni**  
(2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni**  
(2023 yil yanvar-mart oylarida, birlikda)



2023- yilning yanvar- mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (7,3%), G'ijduvon (12,3%), Buxoro (1,7%), Romitan (2,2%), Peshko' (1,1%), Kogon (5,6%), Jondor (1,7%), Vobkent (6,7%), Shofirkon (1,7%), Qorako'l (26,8%), Olot (16,2%), Qorovulbozor (1,1%) tumanlari va Kogon shahar (15,6%), ulushiga tegishli.

### Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot ma'lumotnomasidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashkari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Faoliyat ko'rsatmayotgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Faoliyati tugatilgan** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan yuridik shaxslarning davlat reyestriga yuridik shaxsni tugatilganligi to'g'risidagi yozuv kiritilgandan so'ng bu haqda davlat statistika organlariga ma'lumot taqdim etilgan yuridik shaxslar.

**Yuridik shaxslarning faollik darajasi** – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Yuridik shaxslarning yangi tashkil etilganlik darajasi** – ma'lum bir davr oralig'ida tashkil etilgan yuridik shaxslarning jami faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar** – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.